



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 02 | pp. 95-101 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING STRATEGIK OMILLARI

Dexkanov Sherzod Abdumutalibovich

Yoshlar masalalari,

ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori

Farg'ona davlat texnika universiteti



Annotatsiya. Maqolada qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishga ta'sir etuvchi asosiy strategik omillar tahlil qilingan. Raqamlashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, resurslardan samarali foydalanish, logistika tizimini takomillashtirish hamda boshqaruv samaradorligini oshirishning ilmiy-amaliy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, korxonalarining raqobat ustunligini ta'minlashga qaratilgan kompleks strategik model taklif etilgan.

Kalit so'zlar: raqobatbardoshlik, qurilish materiallari sanoati, strategik boshqaruv, innovatsiya, raqamlashtirish, samaradorlik, sanoat korxonalari.

Annotatsiya. В статье анализируются основные стратегические факторы, влияющие на конкурентоспособность предприятий, производящих строительные материалы. Рассматриваются научно-практические аспекты цифровизации, внедрения инновационных технологий, эффективного использования ресурсов, совершенствования логистической системы и повышения эффективности управления. Также предлагается комплексная стратегическая модель, направленная на обеспечение конкурентного преимущества предприятий.

Ключевые слова: конкурентоспособность, строительная промышленность, стратегическое управление, инновации, цифровизация, эффективность, промышленные предприятия.

Abstract. This article analyzes the key strategic factors influencing the competitiveness of construction materials companies. It examines the scientific and practical aspects of digitalization, the implementation of innovative technologies, the efficient use of resources, the improvement of logistics systems, and increased management efficiency. It also proposes a comprehensive strategic model aimed at ensuring a competitive advantage for companies.

Keywords: competitiveness, construction industry, strategic management, innovation, digitalization, efficiency, industrial enterprises.

Kirish.

Bugungi globallashtirish sharoitida qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar oldida asosiy vazifa – bozorda barqaror o'rin egallash va raqobatbardoshlikni oshirish hisoblanadi. Qurilish sanoati iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlaridan biri bo'lib,

infratuzilma rivoji, investitsiya oqimlari va sanoat modernizatsiyasi bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli ushbu tarmoq korxonalarining strategik rivojlanish omillarini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda mamlakatimiz sanoat salohiyatini mustahkamlash va hududlarni kompleks rivojlantirish, shahar va viloyatlarda yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish hisobiga aholini ish bilan band qilishni kengaytirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar qabul qilindi va amalga oshirildi. Natijada, so'nggi to'rt yil ichida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 23 foizga, shu jumladan elektrotexnika, to'qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat, farmasevtika, zargarlik sanoati, qurilish materiallari, mebel, uy-ro'zg'or buyumlari va boshqa iste'mol mollari ishlab chiqarish singari sanoatning hududlarda jadal rivojlanayotgan tarmoqlari 1,3 barobardan ko'proq o'sdi. Shu bilan birga, hududlarda mavjud sanoat salohiyatidan, ayniqsa, qurilish industriyasini rivojlantirishda noruda minerallarning xom ashyo bazasini o'zlashtirish imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayapti. Xususan, keramzit, silikat qumi, shisha xom ashyosi, qurilish va qoplama toshlarga ega o'rganilgan konlarning yarmidan ko'pi o'zlashtirilmay qolmoqda. Natijada, sanitariya-texnik vositalar bo'yicha mahalliy ishlab chiqarish ichki bozorning faqatgina 40 foizini, gazbeton bloklar - 51 foizini, lok bo'yoq mahsulotlari - 65 foizini, qurilish oynalari - 70 foizini, devor gulgog'ozlari - 30 foizini tashkil etmoqda

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Mahsulot raqobatbardoshligini ta'minlash uni miqdorlarini aniqlashni va uning darajalariga baxo berishni talab qiladi. Ushbu dolzarb muammo doirasida xar bir davrda tadqiqotlar olib borilgan va bunday tadqiqotlar bugungi kunda xam olib borilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki maxsulot raqobatbardoshligini ta'minlashning muxim shartlaridan biri raqobatbardoshlik darajasini raqamlarda ifodalash va shundan so'ng uning miqdorlariga baxo berish amaliyoti bo'lib hisoblanadi.

Ushbu usullar va ularni hisoblash algoritmi to'g'risida olimlar tomonidan bir qator qimmatli fikrlar keltirilgan bo'lib ulardan bir qatorlarini quyidagicha keltirish mumkin. Jumladan: R.A.Fatxutdinov [2] mahsulot raqobatbardoshligini baholashning usullaridan quyidagi usullarni qo'llashni tavsiya qiladi. Jumladan:

- qiyosiy ustunlik nuqtai nazaridan baholash;
- muvozanat nazariyasi nuqtai nazaridan baholash;
- raqobat samaradorligi nazariyasiga asoslangan baholash;
- mahsulot sifati asosida baholash; matritsa usuli;
- SWOD- tahlil usuli va boshqalar.

N.B. Bidnik [4] natijalarini taqdim etish shakliga ko'ra maxsulot raqobatbardoshligini baholash usullari sifatida matritsali, analitik va grafik usullarni tavsiya qiladi. Shuningdek u yana mahsulot raqobatbardoshligini baholash usullari klassifikatsiyasini quyidagicha taklif qiladi:

- raqobat ustunligi taxlili usullari;
- raqobatbardoshlikning baholashning matritsali usullari;
- raqobatbardoshlikni baholashning analitik usullari;
- raqobatbardoshlikni baholashning grafik usullari.

V.S. Ulanuchuk va V.O. Lisenkolar [5] raqobatbardoshlikni baholash usullari sifatida analitik va grafik usullarni taklif etishadi.

O.I.Klimenko va I.I. Oberemkolar [6] baxolash usullarini taqdim etish shakliga ko'ra uchta guruxga: grafikli, matritsali, jadval usullarga bo'lishadi.

I.M. Trunina [7] raqobatni baxolash usullari to'rtta gurux bo'lib, ular: grafikli, matritsali, analitik va aralash usullarga (kombinatsiyalashgan) usullardan tashkil topishini takidlaydi.

A.D. Kuxaruk [8] baxolash usullari matritsali, indeks va grafik usullardan tashkil topishi xaqida fikr bildiradi.

Iqtisodiy adabiyotlarda korxona raqobatbardoshligini oshirish masalalari ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, M. Porter raqobat ustunligi nazariyasida tarmoq ichki kuchlari va strategik pozitsiyalashuv muhimligini ta'kidlaydi. Zamonaviy tadqiqotlarda esa raqamlashtirish, innovatsion faoliyat va logistika samaradorligi asosiy omillar sifatida qaralmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi.

Qurilish materiallari sanoatining taraqqiyotini ta'minlash uchun o'z navbatida kichik va yirik biznes subyektlarining mutanosib nisbati va ular orasidagi integrasion aloqalarni rivojlantirish lozim bo'ladi. Ya'ni ular orasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yishning tashkiliy huquqiy shakllarini takomillashtirish, huquqiy bazasini ishlab chiqish masalalariga alohida e'tibor qaratilishi kerak. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, solishtirma tahlil, statistik baholash, ekspert baholash usuli, strategik omillarni modellashtirish usullardan foydalanildi:

Qurilish materiallari sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlashda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni samarali tashkil etish bo'yicha quyidagi tadbirlarni olib borish taklif etiladi:


- korxonadagi bo'limlar faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirishda bir- biriga bog'lik tizimlar shaklida shakllantirish va o'zaro xarakatni ta'minlovchi mexanizmni tashkil etish zarur;
- mahsulot sifatini oshirishga ta'sir etuvchi xalqaro sifat menejmentini joriy etish lozim;
- korxonalarda muntazam SWOT, PEST kabi tahlil usullaridan foydalangan holda tahdidlar, risklarni tadqiq etish zarur;
- axborot oqimini samarali tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish kerak;
- investorlar bilan samarali bitimlar tuzish, investisiya kiritish hamda innovasion faoliyatni rivojlantirish lozim;
- xodimlar mehnat salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi malaka oshirish, stajirovkaga yuborish tadbirlarini takomillashtirish zarur;
- qurilish materiallari assortimentlari ustida ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish orqali diversifikasiyalashuv jarayoniga erishish lozim;
- korxonalar doimiy ravishda boshqaruv samaradorligini aniqlashi, yo'l qo'yilayotgan kamchilik va muammolar bo'yicha operativ qarorlar qabul qilishi zarur. Metodologik nuqtai-nazardan boshqaruv mexanizmini konseptual modelini ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Tahlil va natijalar.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aholi faravonligini oshirish va yashash sharoitlarini yaxshilash, xususan, aholini bugungi zamon talablari darajasidagi va arzon uy-joy bilan ta'minlash, uy-joy bozoridagi keskinlikni yumshatish, mamlakat hududlarida infratuzilmani rivojlantirish, shaharsozlik normalari va qoidalarini yangi bosqichga olib chiqish kabilar o'z yechimini kutayotgan masalalar hisoblanadi. Buning uchun qurilish ishlari sifatini jahon talablari darajasiga chiqarish, mamlakatda qurilish industriyasini rivojlantirish asosida qurilish sohasi taraqqiyotini ta'minlash talab qilinadi.

Qurilish materiallari sohasida yirik va kichik biznes subyektlarini aloqalarini integratsion shakllantirish, aynan sohada ilk tashkil topgan kichik biznes subyektlarini bozorga kirib kelishi va raqobatda qolishiga sharoit yaratib beradi. Amaliyotda yirik korxonalarni kichik biznes subyektlari o'rtasida o'zaro hamkorligini tashkil qilishning qator samarali yo'nalishlari mavjud. Odatda kichik biznes subyektlari asta sekinlik bilan yirik korxonalar bilan hamkorlik munosabatlarni tashkil qilgan holda ularning ta'sir doirasiga kirib borishadi va ular faoliyatida muhim o'ziga xos bo'lgan subyekt sifatida shakllanishadi. Bunda tadbirkorlik subyektini boshqaruv apparatida faoliyat yurituvchi kadrlarning malakasi muhim sanaladi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, barcha iqtisodiy jarayonlar boshqaruv mexanizmini tartibga keltirish asosida amalga oshiriladi. Shunday ekan, boshqaruv mexanizmi - bu keng ma'noda bir biri bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lib, ularning umumiylikni saqlagan holda boshqaruv obyektida amalga oshirilayotgan jarayonlarning samaradorligini belgilaydi. Boshqaruv mexanizmining umumiy ko'rinishini quyidagi 1-rasmda ko'rish mumkin.



1-rasm. Qurilish materiallari sanoati korxonalarini boshqarish mexanizmining asosiy elementlari¹

Aytib o'tish joizki, boshqaruv pog'onasi oshib borgan sari boshqaruv mexanizmi elementlari soni ham ortib boradi. Chunki boshqaruvning har bir pog'onasi o'ziga xos xususiyatga ega. Masalan, milliy iqtisodiyot, tarmoq iqtisodiyoti, turli shakldagi korxona iqtisodiyoti va boshqalar.

¹ Muallif tomonidan tuzilgan.

Qurilish materiallari korxonalarining raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi strategik omillar

1. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish

Korxonalarda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish tannarxini kamaytiradi, mahsulot sifatini oshiradi va bozordagi raqobat ustunligini ta'minlaydi.

2. Raqamli transformatsiya

Raqamli boshqaruv tizimlari (ERP, CRM, IoT) ishlab chiqarish jarayonini optimallashtiradi va resurslar sarfini kamaytiradi.

3. Resurslardan samarali foydalanish

Xom ashyo, energiya va mehnat resurslaridan samarali foydalanish korxona samaradorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

4. Logistika va ta'minot zanjiri samaradorligi

Transport-logistika xarajatlarini optimallashtirish mahsulotning yakuniy narxini pasaytiradi va bozor raqobatbardoshligini oshiradi.

5. Boshqaruv strategiyasi va marketing siyosati

Bozor talabini o'rganish, brend siyosatini shakllantirish va marketing strategiyalarini qo'llash korxona raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

Raqobatbardoshlikni baholashning integral modeli korxonaning bozor sharoitida ustunligini aniqlash uchun bir nechta strategik ko'rsatkichlarni yagona indeksga birlashtiruvchi kompleks iqtisodiy baholash usulidir. Ushbu yondashuv ko'p omilli tahlil va vaznli koeffitsientlar metodologiyasiga asoslanadi (strategik menejment nazariyasida, jumladan, Michael Porter g'oyalari bilan uyg'un).

Raqobatbardoshlikni baholashning integral modeli

Korxona raqobatbardoshligini baholash quyidagi integral ko'rsatkich orqali aniqlanishi mumkin:

$$K_r = \sum_{i=1}^n \omega_i * S_i$$

Bu yerda:

K_r – korxonaning umumiy raqobatbardoshlik indeksi;

ω_i – i-omilning og'irlik koeffitsienti;

S_i – i-omil bo'yicha baholash ko'rsatkichi;

n – strategik omillar soni.

Ushbu formula strategik boshqaruv va raqobatbardoshlikni kompleks baholash metodologiyasiga asoslangan bo'lib, ko'p omilli ekspert baholash usulidan olingan.

Taklif etilayotgan strategik model

Tadqiqot natijasida qurilish materiallari korxonalari uchun quyidagi strategik model taklif etildi:

- Innovatsion rivojlanish strategiyasi
- Raqamlashtirish asosida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish
- Xarajatlarni optimallashtirish strategiyasi
- Logistika tizimini raqamli boshqarish
- Marketing va eksport salohiyatini oshirish.

Integral model asosida korxona raqobatbardoshligini baholash bir necha ketma-ket metodologik bosqichlardan iborat kompleks ilmiy-amaliy jarayondir. Ushbu bosqichlar strategik menejment nazariyasi va ko'p mezonli baholash usullariga tayangan holda shakllantiriladi. Integral modelning eng muhim bosqichi – baholash omillarini ilmiy asosda aniqlashdir. Omillar korxona faoliyatining barcha strategik yo'nalishlarini qamrab olishi kerak. Har bir omilni o'lchovchi aniq iqtisodiy ko'rsatkichlar belgilanadi.

Korxona raqobatbardoshligini baholashdagi iqtisodiy ko'rsatkichlar²

Omil	Ko'rsatkich
Mahsulot sifati	Brak darajasi, sertifikatlangan mahsulot ulushi
Xarajatlar samaradorligi	1 birlik mahsulot tannarxi
Innovatsiya	Yangi texnologiyalar ulushi (%)
Raqamlashtirish	ERP/IoT tizimlaridan foydalanish darajasi
Logistika	Yetkazib berish muddati
Marketing	Bozor ulushi (%)
Moliyaviy holat	Rentabellik darajasi

Raqobatbardoshlikni baholash integral modeli ko'p bosqichli tizimli yondashuvni talab qiladi. Bosqichlarning izchil amalga oshirilishida korxona holatini kompleks diagnostika qilish, strategik rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash, investitsion jozibadorlikni oshirish, tarmoq ichida samarali raqobat strategiyasini ishlab chiqish imkonini beradi.

Mazkur metodologiya qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun ilmiy asoslangan va amaliy qo'llashga mos universal baholash modeli hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Integral model qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarning raqobatbardoshligini tizimli va miqdoriy baholash imkonini beradi. Ushbu model strategik rejalashtirish, investitsion qarorlar qabul qilish hamda korxona rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda samarali metodik vosita hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar raqobatbardoshligini oshirish ko'p omilli strategik yondashuvni talab etadi. Innovatsiyalarni joriy etish, raqamli texnologiyalar asosida boshqaruvni takomillashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va samarali marketing siyosati korxonalarning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Porter Five Forces Analysis. VDM Publishing, 2011 y. 72 p.
2. Фатхутдинов Р.А. (2004) Управление конкурентоспособностью организации: учебное пособие / М: Эксмо, - 544 с.
3. Кашинцева Е.В. (2018) Методика анализа уровня онкурентоспособности коммерческой организации // Экономический анализ: теория практика. - № 20(77).- С. 15-20.

² Muallif izlanishlari asosida tuzilgan.

4. Бідник Н.Б. (2007) Математичні методи оптимізації конкурентоспроможності підприємства. – Автореф. дисер. к. е. н. по спетс. 08.00.11–Львівський національний університет імені Івана Франка. – Львів, – 18с.
5. Уланчук В.С., Лисенко В.О. (2009) Конкурентсія та методи визначення конкурентоспроможності //Збірник наукових праць Уманського державного аграрного університету. – Випуск 70 (частина 2 – економіка).– Режим доступу: <http://udau.edu.ua/library.php>
6. Клименко О.И., Оберемко В.В. (2013) Критерии и методы проведения комплексной отсенки конкурентоспособности и их совершенствование.// Вестник Белгородского университета кооператии, экономики и права. - № 4. - С. 188–193.
7. Трунина И.М. (2013) Методологические подходы к механизму отсенки конкурентоспособности предпринимательской деятельности. // Вестник Брестского государственного технического университета.- № 3. - С. 30–33.
8. Кухарук А.Д. (2011) Класифікація та аналіз методів отсінки конкурентоспроможності промислових підприємств. / Електронне наукове фахове видання "Проблеми системного підходу в економіці" . - №1. - Режим доступу: http://www.nbu.gov.ua/e-journals/PSPE/2011_1/

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

